ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 4

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 4

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUQADDAS DINIMIZ ISLOM — MA'NAVIYATIMIZNING AJRALMAS QISMI

Ergashev Ixtiyor Saypidinovich

Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti, ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi, f.f.n.

Annotatsiya. Muqaddas dinimiz Islom ma'naviyatimizning ajralmas qismi sifatida, xalqimiz hayotida diniy ta'limotdan tashqari, inson ma'naviyati, axloqi va jamiyatning ma'naviy barqarorligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada islom dini qadriyatlarining shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati, adolat va baynalmilallik printsiplari, madaniy-ma'rifiy sohalarga ta'siri hamda yangi O'zbekistonda ma'naviy rivojlanishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot metodlari sifatida tarixiy tahlil, falsafiy-metodologik yondashuv, ma'naviy-etnik tahlil va empirik kuzatuv qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, islom dini nafaqat ma'naviy qadriyatlar, balki shaxs erkinligi, adolat, halollik va millatlararo totuvlik kabi ijtimoiy mezonlarni shakllantirishda ham muhim omildir. Shu bois, yangi O'zbekiston sharoitida islomiy qadriyatlarni jamiyat taraqqiyotida oqilona tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Islom dini, ma'naviyat, axloq, adolat, baynalmilallik, diniy qadriyatlar, shaxs erkinligi, yangi O'zbekiston, ma'naviy tarbiya

Аннотация. Священная религия Ислам, являясь неотъемлемой частью нашей духовности, играет важную роль в жизни нашего народа не только как религиозное учение, но и как фактор формирования духовного мира человека, его нравственности и духовной стабильности общества. В данной статье анализируется значение исламских ценностей в жизни личности и общества, принципы справедливости и интернационализма, их влияние на культурно-просветительские сферы, а также их роль в духовном развитии Нового Узбекистана. В качестве методов исследования использованы исторический анализ, философско-методологический подход, духовно-этнический анализ и эмпирическое наблюдение. Результаты исследования показывают, что ислам является важным фактором не только формирования духовных ценностей, но и таких социальных критериев, как личная свобода, справедливость, честность и межнациональное согласие. В связи с этим рациональное применение исламских ценностей в развитии общества в условиях Нового Узбекистана приобретает особую актуальность.

Ключевые слова: ислам, духовность, нравственность, справедливость, интернационализм, религиозные ценности, личная свобода, Новый Узбекистан, духовное воспитание.

ISSN 3030-3907

Abstract. The sacred religion of Islam, as an integral part of our spirituality, plays an important role in the life of our people not only as a religious doctrine, but also as a key factor in shaping human spirituality, moral values, and the spiritual stability of society. This article analyzes the significance of Islamic values in the life of individuals and society, the principles of justice and internationalism, their impact on cultural and educational spheres, as well as their role in the spiritual development of the New Uzbekistan. The research methods include historical analysis, a philosophical-methodological approach, spiritual-ethnic analysis, and empirical observation. The results show that Islam is an important factor not only in the formation of spiritual values, but also in shaping social criteria such as individual freedom, justice, honesty, and interethnic harmony. Therefore, the rational application of Islamic values in the development of society in the context of New Uzbekistan is of great relevance.

Keywords: Islam, spirituality, morality, justice, internationalism, religious values, individual freedom, New Uzbekistan, spiritual education.

KIRISH.

Muqaddas dinimiz bo‘lmish islom ma’naviy madaniyatimizning tarkibiy qismi sifatida asrlar davomida xalqlar uchun nafaqat diniy ta’limot, e’tiqod vazifasini o‘tagan, balki turmush tarziga aylanib, o‘zining muayyan qadriyatlarini kishilar ongi va shuuriga singdirib kelgan o‘ziga xos dunyoqarash hamdir.

Islom — ezgulik manbai. U inson, jamiyat, tabiat va butun borliqni yaratgan, insoniyat uchun birdan bir to‘g‘ri, odil hayot yo‘lini ko‘rsatadigan ilohiy qudratga ishonishni bir butun tizimga aylantirgan ta’limotdir. Bu ta’limotning qadriyatlari mazmunini, ezgulik va poklikka da’vat etuvchi o‘gitlarni kishilar diliga soladi. Jumladin, islom dini va uning qadriyatlari inson ma’naviyatini rivojlantirishning muhim omilidir. Qur’on, hadis va shariat ahkomlarida shakllangan musulmonchilikning haq-huquqlari deb tan olingan fikrlar orqali kishilarda iymon, vijdon, muayyan dunyoqarash shakllanadi.

Buning uchun har bir musulmon o‘zi ruhan, vijdonan pok, iymonli va halol bo‘lishi kerak degan da’vat islom ta’limotida va unga asoslangan islom ma’naviyatida muhim o‘rin egallaydi. Zero, inson va jamiyatning poklanishida diniy e’tiqod, islomiy qadriyatlarning o‘rni alohidadir.

„Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”, deydi Shavkat Mirziyoyev yig‘ilishda.

ISSN 3030-3907

Haqiqatan ham, islom dini ming yillar davomida xalqimizning muqaddas e'tiqodi, ma'naviy hayotining asosi vazifasini o'tab keldi. O'zbek xalqi ma'naviy merosi va muqaddas qadriyatlarining juda katta qismini, ya'ni „bebaho xazinaning" islomiy ma'naviyat va ma'rifat, islom manbalari: Qur'oni karim, hadisi shariflar, tafsirlar, shariat ahkomlari va boshqa diniy hamda dunyoviy kitoblar tashkil etadi.

Muqaddas dinimiz, ya'ni islom dini ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatidagi o'rni, mazmun-mohiyati, ko'lami nihoyatda kattadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mazkur mavzu doirasida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, islom dinining ma'naviy hayotdagi o'rni va uning ijtimoiy ahamiyati masalalari keng yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida islom dinining asl insonparvarlik mohiyati, uning ekstremizm va mutaassiblikdan mutlaqo yiroq ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, u o'z asarlarida din niqobi ostidagi turli tahdidlarga qarshi ma'naviy immunitetni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq va ma'ruzalarida islom dini ma'rifat, bag'rikenglik va tinchlik dini ekanligi, buyuk ajdodlarimiz merosi orqali uning asl mohiyatini yoshlar ongiga singdirish muhimligi qayd etilgan.

Islom falsafasi va ma'naviyatiga oid klassik manbalardan biri — Imom Buxoriy hadislar to'plami bo'lib, unda insoniy fazilatlar, axloqiy me'yorlar va jamiyatdagi o'zaro munosabatlar keng yoritilgan. Bu borada **Imom Buxoriy** ning ilmiy merosi alohida ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar o'z asarlarida din va ma'naviyat, ilm va axloq o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab berganlar.

TADQIQOT METODLARI. Ushbu maqolada tadqiqot metodlari sifatida quyidagilar qo'llanildi:

1. **Tarixiy tahliliy metod**: O'zbek xalqining ma'naviy hayoti, diniy qadriyatlari va islom ta'limotining shakllanish jarayonlari tarixiy manbalar, ilmiy tadqiqotlar va klassik adabiyotlar orqali tahlil qilindi.

2. **Falsafiy-metodologik yondashuv**: Maqolada islomiy qadriyatlar va dunyoviy bilimlarning uyg'unligi, shaxs va jamiyatga ta'siri falsafiy nuqtai nazardan o'rganildi.

3. **Ma'naviy-etnik tahlil**: Islom ma'naviyatining xalq ma'naviyatiga ta'siri, baynalmilallik va adolat printsiplari asosida baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. **Ma'naviyatning shakllanishida islom dini roli**

ISSN 3030-3907

Birinchidan, islom dini mintaqa xalqlari ma’naviyati shakllanishida poydevor vazifani o‘tagan. Jahonga mashhur mutafakkir, alloma olimlarimiz shu poydevorga tayanib, oliy darajali, boy ilmiy ma’naviy merosni yaratganlar. Shu meros nafaqat bizning ma’naviyatimiz, balki boshqa Sharq va G‘arb davlatlarining rivojlanishida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga din ruhiy bilim va e’tiqod bo‘lishi bilan bir qatorda insonning dunyoqarashi bilan bog‘liq, fikriy mushohadasini muntazam boyitib boruvchi ta’limot hamdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda inson, jamiyat, tabiat va butun borliqni o‘rganishda fan va din bir-birini to‘ldiradi. Ya’ni aql yecholmagan masalalarni din yordamida hal qilinadi. Shu tariqa inson ongida ham ilmiy, ham diniy qarashlar o‘z ifodasini topib, uning ma’naviyatini shakllantiradi.

Ikkinchidan, Yurtboshimiz Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, O‘zbekistonda ma’naviy hayot ikki – dunyoviylik va diniylik asosida rivojlanishi kerak. Shu nuqtai nazardan ko‘p qirrali faoliyatlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy jarayon bo‘lmish xalqimiz ma’naviyatining shakllanishi va rivojlanishi faqat diniy ta’limotlar bilan chegaralanib qolmasdan, aksincha, dunyoviy (falsafiy) bilimlar uyg‘unligida amalga oshadi. Qur’oni karimning bir necha sura va oyatlarida ham odamlarni ilm olishga, ilm bilan shug‘ullnishga da’vat etilgan. Zero, „Bu ikki zohiriy va botiniy bilimlarni egallagan va ularni bir-biriga bog‘lay olgandagina, inson chin haqiqatni anglab yetadi, baxtga, saodatga eltuvchi yo‘lni bilib oladi“.

Uchinchidan, islom ma’naviyatida shaxs erkinligiga keng imkoniyat yaratilgan. Qur’oni karimning Baqara surasi 256-oyatida „Dinda zo‘rlik yo‘q“ deb yozib qo‘yilgan. Demak, din va uning qadriyatlarini qabul qilish ixtiyoriy, majburiy emas, ammo har bir ongli kishi olamni, undagi voqea va hodisalarni idrok eta oluvchi odamning tabiiy ehtiyojidir. Shunday ehtiyojga ega bo‘lgan inson uchun din inson ma’naviyati va axloqini shakllantiruvchi muhim omildir.

To‘rtinchidan, islom ma’naviyati mazmun-mohiyati jihatidan shaxs va jamiyatga nisbatan baynalmilallik xarakteriga ega. Uning uchun xalqlar terisining rangi, tili, irqi, jamiyatda, hayotda tutgan mavqei, millatining ahamiyati yo‘q, barchasi yagona Allohning bandasi hisoblanadi. Islom falsafasi va qadriyatlarida baynalmilallikka oid fikrlar: millatlararo, dinlararo totuvlik, do‘stlik, hamkorlik, o‘zaro yordam kabilar har bir mo‘min-musulmon ma’naviyatining tarkibiy qismi hisoblangan. Islom falsafasida insonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlarida mehr-oqibatli bo‘lish, shaxs va jamiyatning o‘zaro iliq, hurmatga sazovor munosabatlarda bo‘lishiga chorlaydigan ma’naviy-axloqiy fikrlar keng o‘rin olgan. Ulardan birida shunday deyiladi: „Bir-biringizni orangizni buzmang, bir-biringizni orqangizdan ayb qidirmang, bir-biringizni yomon ko‘rmang, bir-biringizga hasad qilmang“. Bunday milliy, axloqiy fazilatlar va islomiy qadriyatlar asrlar davomida

ISSN 3030-3907

xalqimiz qalbidan o‘rin olib, ular ma’naviyatining shakllanishiga xizmat qilgan. Bu fazilatlarning, ayniqsa, hozirgi huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini qurishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, islom ma’naviyatining yana bir muhim jihatlaridan biri musulmon ahlida ijtimoiy adolat ruhini tarbiyalash bo‘lgan. Qur’onda adolat so‘zi 57 marta tilga olingan. Buning sababi islomdan oldingi „johiliya“ davrida odamlarga ijtimoiy hayotining iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy sohalarida juda ko‘p adolatsizliklar hukm surgan. Shuning uchun islom ta’limoti va ma’naviyati uni tinchlik va adolatni sevuvchi, insonlarni ardoqlovchi din, deb qaralib, adolat deyilganda faqat me’yoru-o‘lchov, tosh-tarozi tushunilmaydi, balki adolat va adolat mezonlari orqali islomiy mehr-muruvvatlik, kishilar o‘rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan qadriyat deb qaralib, bu tushunchaga ijtimoiy mohiyat beriladi.

Yangi O‘zbekistonda bunyod etilayotgan fuqarolik jamiyatida intellektual, salohiyatli, bilimdon, mehr-muruvvatli yoshlarni mustaqillik sharoitida qabul qilingan qonunlarga tayanib, adolat va uning mezonlari asosida, tarbiyalashda islom ma’naviyatida shakllangan adolat tushunchalari va talablari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Oltinchidan, islomning nazariy asoslari, qadriyatlari va ruhiy bilimlar Markaziy Osiyoda, shu jumladan, O‘zbekistonda madaniy-ma’rifiy ishlarni, ayniqsa, badiiy adabiyot, san’at turlarini, ilm-fan sohasida – falsafa, islom falsafasi, tarix, tabiiy fanlarning rivojiga katta hissa qo‘shdi. Shuningdek, arab tili, grammatikasi va yozuvini, ritorika, husnixat, kitoblarni muqovalash va bezash, xususan, tasviriy san’atni rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ayni zamonda ma’naviy madaniyatning moddiy madaniyat bilan uyg‘unlashuvi, ya’ni kiyinish madaniyatida yangi dizaynerlik harakatida, masjid, madrasa, islomiy obidalarni qurishda, shaxsiy uylarni qurish, bezash, jihozlash va boshqalarda o‘z ifodasini topdi.

XULOSA. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, „muqaddas dinimiz ma’naviyatning tarkibi“ ma’naviyatni shakllantirishdagi asosiy mezonlaridan biri sifatida, ijtimoiy taraqqiyotda, jamiyat taraqqiyotining ichki va tashqi munosabatlarida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Zero, islom ma’naviyatidagi mezoni: insonparvarlik, vatanparvarlik, millatlar va dinlararo totuvlik, xalqparvarlik, yetimparvarlik hamda mehr-oqibat, muruvvatlilik, hamjihatlilik, axloq-odob, halollik kabi fazilatlarni shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. Yangi O‘zbekistonda milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon yuz tutayotgan va bunyod etilayotgan huquqiy demokratik, fuqarolik jamiyatini boshqa omillar qatori

ISSN 3030-3907

muqaddas dinimiz ma’naviyati va islomiy qadriyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur’oni Karim. Tafsirlar va sharhlar. Toshkent, 2005.
2. Hadislar to‘plami. Sahih al-Buxori, Sahih Muslim. Toshkent, 2010.
3. Ergashev I.S. Islom dini va ma’naviyat. Andijon: Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti nashriyoti, 2021.
4. Nasr S.H. Islam: Ma’naviyat va falsafa. New York: Oxford University Press, 1996.
5. Allomalar va mutafakkirlar merosi. Abu Nasr Farobi, Al-G‘azzoliy, Ibn Sino. Toshkent, 2015.

ISSN 3030-3907